



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

HINDISTONDA TURIZM XIZMATLAR BOZORI SALOHIYATINI HISOBBLASH USULLARI

Ziyodullayeva L.S.¹

Otajonova (Sharipova) Azizaxon Maqsat qizi²

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

KEYWORDS

Hindistonda turizm va muammolar, iqtisodiyot, infratuzilma, strategiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, siyosiy omil, aholi daromadi, SWOT tahlil, bozor hajmi va ulushi.

ABSTRACT

Maqolada 2023-2024 yillarda Hindistonda turizmni rivojlantirishning hozirgi holati, shuningdek, uning keyingi o'sishining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga hozirgi paytdagi shu sohada mavjud bo'lgan ayrim muammolar va uning yechimiga oid takliflar ko'rib chiqiladi. Hindistondagi turizm covid-19 pandemiyasi va global iqtisodiy inqirozlar bilan bog'liq muammolarga qaramay, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda. Maqolada sayyoohlarni bo'yicha statistika, infratuzilma loyihalari va hukumatning ushbu sektorni rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbuslari yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.14884437](https://doi.org/10.5281/zenodo.14884437)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish.

Hindiston turizmi - dunyo miqyosida mashhur bo'lib, boy tarix, madaniyat va tabiiy go'zalliklarni o'z ichiga oladi. Bu mamlakatning turizm sohasidagi imkoniyatlari juda keng bo'lib, u nafaqat xalqaro sayyoohlarni, balki ichki sayyoohlarni ham o'ziga jalg qilib kelmoqda. Uning turizm salohiyati turistlarning istaklarini tahlil qilib, o'zining butun imkoniyatlarini o'rganish orqali tahlil qiladi va kelajakda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga esa ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tabiiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda turizm xizmatlar bozorini salohiyatini o'rganib hisoblashda bozor hajmi, aholi daromadi va bir nechta tahlillar yordam beradi. Bu maqolada Hindistonning turizm xizmatlar bozori salohiyatini hisoblashda qo'llaniladigan usullar tahlil qilinadi. Turizm xizmatlar bozorini tahlil qilish va uning salohiyatini hisoblash,

¹ Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti dot.i.d.n.

² Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti 1-bosqich magistranti.

mamlakatning turizm sohasidagi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Usullar.

Turizm xizmatlar bozori salohiyatini hisoblashda bir nechta statistik va iqtisodiy metodlardan foydalanish mumkin. Bu usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bozor tahlili: Bozorning umumiy hajmini va o'sish sur'atlarini aniqlash. Bu usulda, turizm bozorining yillik o'sish sur'ati, turistlarning soni, ularning sarf-xarajatlari, xizmatlar turini aniqlash uchun an'anaviy statistika va prognozlar ishlataladi. Hindistonda ichki turizm ustunligi 2020-2024 yillarda jami turizm daromadining 94% ni tashkil etdi va ichki turizm orqali 151 mlrd \$ xarajat amalga oshirildi. Ichki turizmda turistlar soni tahminan o'rtacha 670-700 mln ga yetdi. Hindistonning turizm bozori 2024-yilda 22,30 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olishi kutilmoqda. Yillik prognoz qilingan o'sish sur'ati (CAGR 2024-2029) 8,87% bo'lishi 2029-yilga kelib bozor hajmini 34,11 milliard AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda.

Ta'minot va Talab tahlili: Bu usul orqali turizm sohasidagi xizmatlar ta'minoti va talabini baholash mumkin. Turistlarning qiziqishlari, talab o'zgarishlari, shuningdek, turizm infratuzilmasi (mehmonxonalar, transport xizmatlari) darajasi hisobga olinadi. Hindistonning eng mashxur turistik joy sifatida tanilishida transport va turar joylarning arzonligi ham muhim o'rinni tutadi. Masalan: Eng katta yo'lga ega-5.8 mln.km. Mehmonxonalarining narxlari esa minimum 6 \$ dan maksimum 600 \$ gacha toppish mumkin, bu turistlarning xohish va istaklari va albatta moliyaviy budgetiga qarab tanlanadi.

Iqtisodiy ta'sir tahlili: Hindistonning turizm bozoriga qo'shgan iqtisodiy hissa-miqdorini baholash. Bu usulda, turizmdan olinadigan soliq daromadlari, ish o'rinni yaratish, va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Hindistonda turizmni rivojlanishida boshqa davlatlarning moliyaviy yordamini muhim o'rinni tutadi. Chunki, infratuzilmaning yaxshilanishi, rejalashtirilgan loyihalarning bajarilishi pulga borib taqaladi va bu ko'makda bir nechta davlatlar o'z xissasini qo'shmoqda, masalan:

1-o'rinda Xitoy-1 mlrd

2-BAA


3-AQSH -500mln

4-Buyuk Britaniya-400mln/1 mlrdgacha

(Jami investitsiyalarining miqdori 40-50 mlrd \$ ga teng)

Natijalar.

Hindistonning turizm xizmatlar bozori salohiyatini hisoblash natijalari ko'rsatilgan metodlar asosida olingan statistik ma'lumotlarga asoslanadi. 2023 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Hindiston yilda 10 milliondan ortiq xalqaro turistlarni qabul qiladi va bu raqam o'sish sur'atlari bilan 12% ga oshgan. Turizm bozorining umumiy hajmi taxminan 200 milliard dollarga teng. Bu o'sish nafaqat xalqaro turizm, balki ichki turizmning ham rivojlanishiga bog'liq. Bozor tahlili natijalariga ko'ra, mehmonxona va transport xizmatlariga talab yil sayin ortmoqda.



Bu 1-rasmida Hindistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning soni keltirilgan bo'lib, Covid-19 dan keyin turizm sohasi sekin astalik bilan qayta tiklangani va bugungi kunga kelib yana ko'plab turistlarni o'z mamlakatiga jalg qila olayotganini ko'rishimiz mumkin. Deyarli 10 mln sayohatchilar 2024 yilning yakuniga qadar tashrif buyurishgan.

MUNOZARA .

Hindistonda turizm xizmatlar bozori salohiyatining yuqori ekanligini ko'plab omillar bilan ko'rsatish mumkin. Birinchidan, Hindistonning boy madaniy va tabiiy resurslari turistlarning e'tiborini tortadi. Ikkinchidan, turizmgaga bo'lgan talabning o'sishi, mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi va transport tizimining kengayishi bilan bog'liq. Biroq, turizm bozorining rivojlanishiga qaramay, ekologik muammolar va ijtimoiy ta'sirlar ham mavjud. Masalan, ortiqcha turistlar va noto'g'ri boshqarilgan turizm infratuzilmasi atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun Hindistonning turizm sanoatini rivojlantirishda, ekologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish kerak.

Iqtisodiy omil:

- 2022-2023 yillarda aholi jon boshiga yillik daromad 1.97.000 rupiya
(1 rupiya=151.69 so'm)
- 2023-2024 yillarda esa 2.07.500 r.

Ijtimoiy omil:

- Aholi soni – 1.451 mlrd (2024-yil o'rtasigacha)
- Yosh jihatdan segmentlash:
- +0-14 yosh 24.62% (357mln)
- +15-64 yosh 68.23% (990 mln ishchi guruh)
- +65 dan yuqori 7.15% (104 mln)
- O'rtacha yosh 28-30

Siyosiy omillar Hindiston turizmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki mamlakatning

siyosiy barqarorligi, xavfsizlik masalalari va hukumatning turizmni qo'llab-quvvatlash siyosati sayyoqlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Hindiston hukumati turizmni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirmoqda:

- E-visa tizimi: Turistlar uchun vizani soddalashtirish (160 dan ortiq davlatga amal qiladi);

- raqamli Hindiston: Sayohat va bronlash jarayonlarini raqamlashtirish orqali turistlarga qulaylik yaratish;

- turizm shartnomalari: Yirik xalqaro tadbirlar, masalan, G20 sammitlari, turistlarni jalg qilish imkoniyatini oshirmoqda.

Hindistonda ta'lim darajasi avvalgi yillardan ko'ra muvaffaqiyatga erishdi ya'ni aholining deyarli 76.32 % savodxonlikka erishgan.

Aholi bandligi va aholining o'sish sur'ati:


- ishsizlik darajasi: 4-8 % oralig'ida;

- Ishsizlik asosan 15-29 yosh o'rtaida

- Qishloq xo'jaligida 45-50%

- Xizmat ko'rsatishda 30-35%

- Sanoat va ishlab chiqarishda 15-20%



2-rasmida Hindiston aholisining 2020-2024 yillarda o'sish sur'atini ko'rishimiz mumkin.

Bu davlatdagi mavjud muammoga kelsam, bilamizki tozalik va gigiyena talablarining yaxshi emasligi, hamda Pokiston bilan uzoq yillardan beri davom etayotgan Kashmir masalasi o'z nihoyasiga yetmas ekan uning yanada turizm sohasida cho'qqilarga erishishiga to'sqinlik qiladi. Bu masalaga yechim sifatida o'z taklifimni kiritadigan bo'lsam hukumatning aholini tozalikka rioya qilishiga undash uchun jarimalarning joriy etilishi yoki toza hududlarning kengayishi uchun qancha toza hudud bo'lsa aynan o'sha joyga oziq-

ovqatning tekinga tarqalishini misol qilsak bo'ladi.Bilamizki Hindiston davlatida qashshoqlik darajasi va uysizlik darajasi hali hamon yuqori.Bu esa ularni ruhlantiradi .Kashmir masalasini esa 2 davlat o'ttasida muzokaralar olib borilib,teng ikkiga bo'lish yoki u hudud o'rniga boshqa hududni almashish yo'li bilan tugatish mumkin,chunki mu muammolar turistlarni tashrif buyurishdan cko'rqtishi va xavf-xatarlar ko'p deya o'ylashlariga olib kelmoqda.

Xulosa

Hindiston davlati hozirgi kunda o'zining xilma-xil turistik yo'nalishlari bilan sayohatchilarni jalg qilib kelmoqda va buning uchun mamlakatda bir qator ishlar olib borilmoqda.Ayniqsa infratuzilmaga katta e'tibor qaratilib turizm salohiyatini yaxshilash va kelgusida bu soha orqali katta daromadga chiqish ko'zda tutilgan. Hindistonning turizm xizmatlari bozorida salohiyatni maksimal darajada oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, marketing strategiyalarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Yuqorida bir nechta statistik ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin ,u yerda turistlarning soni yildan yilga oshib borayotgani va savodxonlik darajasi yuqorilashi oqibatida malakali ishchilarning safi kengayotganini bilishimiz mumkin.O'zbekiston bu mamlakatdan tajriba sifatida tibbiyotini yoki arzon va sifatli servis xizmatlarini namuna sifatida olsa bo'ladi.Shu bilan bir qatorda bilimli va yuqori malakali kadrlar almashinuvini yo'lga qo'ysa u mamlakatning tajribalarini o'zimizda qo'llasa yurtimiz yanada rivojlanib turistik davlatlar qatorining yuqori o'rinalarda turishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.I.S.Tuxliyev, Z.O.Raximov//Turizm xizmatlar bozori. O'quv qo'llanma. Samarqand-2018.-280 bet.
- 2.A. Mathur//Hindiston turizmi.O'quv qo'llanma.2016.-478 bet.
3. Kevin Hannam and Anya Diekmann. "Tourism and India".India-2010.-164 bet.
- 4.<https://tourism.gov.in/sites/default/files/2024-02/India%20Tourism%20Statistics%202023-English.pdf>
5. <https://www.worldometers.info/world-population/india-population/>